XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-031-11-0-K/24 Farg‘ona viloyati

Farg‘ona viloyatining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ–1011-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024 yil 14 okyabrdagi 01-1239/11-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26808-sonli ko‘rsatmalarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq, Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2025 yilgi daromadlari **6 027,6 mlrd.so‘m** va xarajatlari **8 171,4 mlrd.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **2 143,8 mlrd.so‘m** miqdorida, shundan aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan transfertlar **349,5 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar byudjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlarini qo‘llaganda, tuman va shaharlar byudjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa yuqori turuvchi byudjetlarga ajratmalarni ko‘zda tutishi mumkin.

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1 iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika byudjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 49 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi; alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining Toshkent viloyati va

Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika byudjeti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy byudjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar byudjetlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy byudjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda byudjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar byudjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffisiyentlarni joriy etishga;

ko‘chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib 1,3 baravarigacha oshiruvchi koeffisiyentlarni qo‘llashga haqli.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar byudjetlariga to‘liq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetiga yo‘naltirishi ta’qiqlanadi (bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lgan shahar va tumanlar mustasno).

Agar qonunchilikda daromadlarning byudjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika byudjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy byudjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga o‘tkaziladi.

Byudjet tizimi byudjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli byudjet tizimi byudjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025 yilning 1 iyuliga qadar 2024 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkaziladi. Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024 va 2025 yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to‘lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Farg‘ona viloyatining 2025 yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga;

Farg‘ona viloyatining viloyat mahalliy byudjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga;

viloyatning viloyat byudjetidan 2025 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilova**ga;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari **4-ilova**ga;

Bunda, ajratma meьyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

viloyat byudjetidan tuman va shahar mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi **6-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Viloyatning viloyat byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining 2025 yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **12 200,0 mln. so‘m**hamda tumanlar va shaharlar byudjetlari shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **7-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **32,7 mlrd.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda:

sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish xarajatlari viloyat byudjetiga o‘tkazilgan hududlarda Qonunning 8-moddasiga muvofiq, tumanlar va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari oldingi yildagi (2024 yilgi) hajmidan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyat byudjetining zaxira jamg‘armasini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

viloyat, tuman va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek

ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar **8-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar **9-ilovaga**, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffisiyentlar **10-ilovaga**, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng kam va eng yuqori qat’iy belgilangan stavkalari **11-ilovaga** hamda ko‘chmas mulk ob’yektlari bo‘yicha ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlari **12-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyundagi “Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-299-son qaroriga asosan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarida ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi» xarajatlari uchun rejalashtirilgan mablag‘larni yil davomida haqiqatda shakllanadigan talabdan kelib chiqib, shahar va tumanlar o‘rtasida qayta taqsimlash vakolati berilsin.

10. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Ubaydullayev, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev), viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxanov) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025 yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

11. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas’ul boshqarma va tashkilotlar 2025 yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxanov) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

13. Majburiy ijro byurosi viloyat boshqarmasi (A.Alimov), viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxanov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi (A.Saliyev) Bo‘sh turgan ob’yektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining hududiy boshqarmasi (E.Eshonov) bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini aniqlash bo‘yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlari ro‘yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

15. Farg‘ona irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi (F.Tursunov) va viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxanov) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

16. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ikromov), Adliya boshqarmasi (A.Buriyev) viloyatda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

17. Viloyat soliq boshqarmasi (M.Mamatxanov), Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (D.Fozilov) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy byudjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

18. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

19. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25 yanvar kuniga qadar byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

20. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (A.Xolmatov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamentining Davlat moliyaviy nazorati Inspeksiyasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi (E.Usmonov) byudjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

22. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Mirzayev), Davlat soliq boshqarmasi (M.Mamatxanov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

23. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i M.Ubaydullayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi X.Komilov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyatining 2025 yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2026-2027 yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2025 yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2026 yil	2027 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, (mlrd.so‘m)	108 328,1	124 199,4	143 514,1
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, (foizda)	6,3	6,5	6,7
3.	Istemol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, (foizda)	7-7,5	6,5-7,0	5,5-6,5
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, (foizda)	7,2	7,3	7,7
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, (foizda)	4,2	4,3	4,4
6.	Jami xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sish sur’ati, (foizda)	15,3	15,5	15,8

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatining viloyat mahalliy budjetining daromadlarining 2025 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
	JAMI	**3 236 252 560,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	469 369 080,0
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 491 119 270,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aksiz solig‘i, jami	**587 295 620,0**
	shu jumladan:	
	- alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	39 697 500,0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	*547 598 120,0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	86 272 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	101 499 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
12	Davlat boji	225 653 000,0
13	Jarimalar	158 593 590,0
14	Davlat mulkini xususiylashtirish	
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	1 487 000,0
16	Yig‘imlar	114 964 000,0
17	Boshqa tushumlar	

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yil uchun Farg‘ona viloyatining viloyat budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Xarajatlar miqdori, jami	**7 277 593 336**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 037 685 416**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	96 018 000
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	2 143 889 920
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi**	**330 030 118**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**330 030 118**
	shundan:	
	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi va tasarrufidagi muassasalar	317 906 839
	"Yoshlik" sport markazi xarajatlari	572 386
	Professional ta’lim muassasalari	11 550 893
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmasi**	**265 157 522**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**265 157 522**
	shundan:	
	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasini saqlash xarajatlari	1 024 718
	Texnikumlar	264 132 804
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash boshqarmasi**	**2 706 232 230**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 632 204 230**
	shundan:	
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi markaziy apparati	4 039 813
	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tasarrufidagi muassasalar	2 622 651 052
	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi filiali	3 197 958
	Bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	2 162 633
	Sog‘likni saqlash boshqarmasi kutubxonasi	152 774
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	74 028 000
4	**Madaniyat boshqarmasi**	**89 034 691**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**89 034 691**
	Madaniyat boshqarmasi markaziy apparati	1 396 369
	Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi madaniyat muassasalari	53 391 735
	Maqom va san’at maktablari	34 246 587
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Ma’naviyat va ma’rifat markazi**	**5 229 321**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**5 229 321**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Sport boshqarmasi**	**92 760 456**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**92 760 456**
	Sportni rivojlantirish bosh boshqarmasi markaziy apparati	5 384 628
	Viloyat sport muassasalari	53 172 476
	Professional ta’lim muassasalari (Olimpiya va paraolimpiya markazi)	34 203 352
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi**	**3 647 188**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**3 647 188**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi**	**16 702 919**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**16 702 919**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi**	**62 020 887**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**62 020 887**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**92 832 079**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**86 782 079**
	shundan:	
	Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash	36 850 000
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	6 050 000
11	**Transport boshqarmasi**	**1 821 015**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 821 015**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi**	**19 077 558**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**19 077 558**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi**	**2 176 692 473**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 116 195 118**
	shundan:	
	Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	12 377 871
	Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi xodimlari malaksini oishirish xarajatlari	275 000
	Davlat organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqarolar yoki yuridik shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	5 000 000
	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	4 000 000
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini saqlash xarajatlari	17 642 005
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasini xodimlari malaksini oishirish xarajatlari	143 000
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	12 850 089
	G‘aznachilik xizmati qo‘mitasining hududiy boshqarmasi xodimlari malaksini oishirish xarajatlari	165 000
	Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasini saqlash xarajatlari	3 244 798
	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	1 060 497 355
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga tartibga soluvchi transfertlar	2 143 889 920
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi**	**1 889 395**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 889 395**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hududiy boshqarmasi**	**1 602 525**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 602 525**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
16	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi**	**8 571 576**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**8 571 576**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi**	**9 225 653**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**9 225 653**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Adliya boshqarmasi**	**18 857 968**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**18 857 968**
	Viloyat adliya boshqarmasi va yuridik xizmat markazlari saqlash xarajatlari	9 224 498
	FHDYO bo‘limlari saqlash xarajatlari	4 829 004
	Arxiv muassasalarini saqlash xarajatlari	4 804 466
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Soliq boshqarmasi**	**146 030 268**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**146 030 268**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
20	**Hokimiyat**	**65 829 063**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**49 889 063**
	shundan:	
	Viloyat hokimligini saqlash xarajatlari	10 160 718
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	144 130
	Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish o‘quv kursi	882 459
	Zaxira jamg‘armasi	32 710 275
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	603 096
	Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi	5 388 385
	Avtobus yo‘nalishlarini subsidiyalash	8 309 808
	Issiqlik ta’minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari	2 500 000
	Issiqlik ta’minoti xizmati uchun pasaytirilgan tariflarni qo‘llash natijasida yuzaga keladigan zararni qoplash xarajatlari (subsidiya)	9 321 000
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	15 940 000
21	**Hokimyat** (Obodonlashtirish boshqarmasi)	**23 066 808**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**23 066 808**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
22	**Hokimyat** (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	**21 248 922**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**21 248 922**
	shundan:	
	Qabul uylarini saqlash xarajatlari	7 074 941
	Axborot-kutubxona markazlari	2 679 821
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	10 686 652
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
23	**Ichki ishlar boshqarmasi**	**26 369 671**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**26 369 671**

	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
24	**Mudofaa ishlari boshqarmasi**	**4 216 247**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 216 247**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
25	**Oila va xotin-qizlar qo‘mitasinining hududiy boshqramasi**	**1 428 619**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**1 428 619**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
26	**Boshqa tashkilotlar**	**4 625 599**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**4 625 599**
	ob’yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
4-ilova

2025 yil uchun belgilangan soliq prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha ajratma me’yorlari *(foiz hisobida)*

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Farg‘ona shahri	0	2	100	98	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
2	Qo‘qon shahri	0	32	100	68	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
3	Quvasoy shahri	0	100	100	0	0	45	100	55	0	0	100	100	0	0	100	100
4	Marg‘ilon shahri	0	49	100	51	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
5	Oltiariq tumani	0	97	100	3	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
6	Bog‘dod tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
7	Buvayda tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
8	Beshariq tumani	0	100	100	0	0	82	100	18	0	0	100	100	0	0	100	100
9	Quva tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
10	Uchko‘prik tumani	0	80	100	20	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
11	Rishton tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
12	So‘x tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
13	Toshloq tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100
14	O‘zbekiston tumani	0	100	100	0	0	64	100	36	0	0	100	100	0	0	100	100
15	Farg‘ona tumani	0	69	100	31	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
16	Dang‘ara tumani	0	100	100	0	0	60	100	40	0	0	100	100	0	0	100	100
17	Furqat tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
18	Yozyovon tumani	0	100	100	0	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100
19	Qushtepa tumani	0	95	100	5	0	0	100	100	0	0	100	100	0	0	100	100

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga
		Yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	Yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	Yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	Yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	Yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	Yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar				
1	Farg‘ona shahri	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
2	Qo‘qon shahri	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
3	Quvasoy shahri	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
4	Marg‘ilon shahri	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
5	Oltiariq tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
6	Bog‘dod tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
7	Buvayda tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
8	Beshariq tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
9	Quva tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
10	Uchko‘prik tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
11	Rishton tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
12	So‘x tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
13	Toshloq tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
14	O‘zbekiston tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
15	Farg‘ona tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
16	Dang‘ara tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
17	Furqat tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0

18	Yozyovon tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0
19	Qushtepa tumani	0	100	100	0	0	100	100	0	0	0	100	100	100	0	100	0

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq		Davlat mulki buyicha ijara tulovlari		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga	Tuman (shahar) lar byudje tiga	Viloyat ning viloyat byudje tiga
1	Farg‘ona shahri	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	16	84	0	100
2	Qo‘qon shahri	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	11	89	0	100
3	Quvasoy shahri	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
4	Marg‘ilon shahri	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	8	92	0	100
5	Oltiariq tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	3	97	0	100
6	Bog‘dod tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
7	Buvayda tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	17	83	0	100
8	Beshariq tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
9	Quva tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
10	Uchko‘prik tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
11	Rishton tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
12	So‘x tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
13	Toshloq tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	18	82	0	100
14	O‘zbekiston tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
15	Farg‘ona tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	2	98	0	100
16	Dang‘ara tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
17	Furqat tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
18	Yozyovon tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	0	100	0	100
19	Qushtepa tumani	100	0	100	0	100	0	100	0	100	0	0	100	15	85	0	100

** Izox: 1. Boshqa tushumlar bo‘yicha 3450950, 3450951 daromad kodi bo‘yicha kelib tushadigan tushumlar to‘liq xajmda shahar va tuman mahalliy budjetlariga hamda qolgan barcha boshqa tushumlar viloyatning viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

2. Davlat mukini xususiylashtirish hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ijara va mulk huquqi asosida elektron auksionda sotishdan tushugan tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tuman mahalliy budjetlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2025 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfert miqdori jami	*Shundan*
			Aksiz solig‘i bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromad
x	**JAMI**	**2 143 889 920,0**	**349 510 000,0**
1	Viloyat byudjeti	1 897 450 856,0	349 510 000,0
2	Farg‘ona shahar	0	0
3	Qo‘qon shahar	0	0
4	Quvasoy shahar	0	0
5	Margilon shahar	0	0
6	Oltiariq tumani	0	0
7	Bog‘dod tumani	27 873 322	0
8	Buvayda tumani	0	0
9	Beshariq tumani	0	0
10	Quva tumani	24 885 267	0
11	Uchko‘prik tumani	0	0
12	Rishton tumani	31 599 684	0
13	So‘x tumani	77 085 932	0
14	Toshloq tumani	0	0
15	O‘zbekiston tumani	0	0
16	Farg‘ona tumani	0	0
17	Dang‘ara tumani	0	0
18	Furqat tumani	42 190 986	0
19	Yozyovon tumani	42 803 873	0
20	Qo‘shtepa tumani	0	0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2025 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI		**2 791 298 940,0**	**3 037 738 004,0**
1	Farg‘ona shahar	261 107 980,0	261 107 980,0
2	Qo‘qon shahar	214 716 440,0	214 716 440,0
3	Quvasoy shahar	121 839 122,0	121 839 122,0
4	Margilon shahar	152 220 830,0	152 220 830,0
5	Oltiariq tumani	160 348 806,0	160 348 806,0
6	Bog‘dod tumani	145 635 736,0	173 509 058,0
7	Buvayda tumani	156 886 952,0	156 886 952,0
8	Beshariq tumani	165 915 145,0	165 915 145,0
9	Quva tumani	169 658 134,0	194 543 401,0
10	Uchko‘prik tumani	161 530 880,0	161 530 880,0
11	Rishton tumani	134 752 120,0	166 351 804,0
12	So‘x tumani	10 924 267,0	88 010 199,0
13	Toshloq tumani	143 305 080,0	143 305 080,0
14	O‘zbekiston tumani	174 585 253,0	174 585 253,0
15	Farg‘ona tumani	176 987 000,0	176 987 000,0
16	Dang‘ara tumani	142 936 474,0	142 936 474,0
17	Furqat tumani	78 990 067,0	121 181 053,0
18	Yozyovon tumani	77 688 334,0	120 492 207,0
19	Qo‘shtepa tumani	141 270 320,0	141 270 320,0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
7-ilova

2025 yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdori
x	**JAMI**	**30 000 000,0**
x	*shundan*	
1	Viloyat byudjeti	12 200 000,0
2	Farg‘ona shahar	2 485 000,0
3	Qo‘qon shahar	2 063 000,0
4	Quvasoy shahar	770 000,0
5	Margilon shahar	1 562 000,0
6	Oltiariq tumani	913 000,0
7	Bog‘dod tumani	809 000,0
8	Buvayda tumani	739 000,0
9	Beshariq tumani	779 000,0
10	Quva tumani	1 018 000,0
11	Uchko‘prik tumani	755 000,0
12	Rishton tumani	799 000,0
13	So‘x tumani	243 000,0
14	Toshloq tumani	822 000,0
15	O‘zbekiston tumani	787 000,0
16	Farg‘ona tumani	851 000,0
17	Dang‘ara tumani	715 000,0
18	Furqat tumani	462 000,0
19	Yozyovon tumani	471 000,0
20	Qo‘shtepa tumani	757 000,0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi (1 ga uchun)
1	Farg‘ona shahar	1,55	63 085,0
2	Qo‘qon shahar	1,55	63 085,0
3	Quvasoy shahar	1,05	42 735,0
4	Margilon shahar	1,10	44 770,0
5	Oltiariq tumani	0,95	38 665,0
6	Bog‘dod tumani	0,95	38 665,0
7	Buvayda tumani	0,90	36 630,0
8	Beshariq tumani	0,95	38 665,0
9	Quva tumani	1,10	44 770,0
10	Uchko‘prik tumani	0,95	38 665,0
11	Rishton tumani	0,90	36 630,0
12	So‘x tumani	0,90	36 630,0
13	Toshloq tumani	0,95	38 665,0
14	O‘zbekiston tumani	0,95	38 665,0
15	Farg‘ona tumani	0,95	38 665,0
16	Dang‘ara tumani	0,95	38 665,0
17	Furqat tumani	0,90	36 630,0
18	Yozyovon tumani	0,90	36 630,0
19	Qo‘shtepa tumani	0,90	36 630,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘m)
1	Farg‘ona shahar	1,50	549,0
2	Qo‘qon shahar	1,50	549,0
3	Quvasoy shahar	1,10	403,0
4	Margilon shahar	1,50	549,0
5	Oltiariq tumani	1,10	403,0
6	Bog‘dod tumani	0,95	348,0
7	Buvayda tumani	0,95	348,0
8	Beshariq tumani	1,10	403,0
9	Quva tumani	1,15	421,0
10	Uchko‘prik tumani	0,95	348,0
11	Rishton tumani	0,95	348,0
12	So‘x tumani	0,85	311,0
13	Toshloq tumani	1,10	403,0
14	O‘zbekiston tumani	1,00	366,0
15	Farg‘ona tumani	1,00	366,0
16	Dang‘ara tumani	1,00	366,0
17	Furqat tumani	0,90	329,0
18	Yozyovon tumani	0,85	311,0
19	Qo‘shtepa tumani	0,95	348,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffisentlarni belgilash huquqiga ega

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffisiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffisiyent (0,5 dan)	Minimal miqdor 2025 yil uchun (ming.so‘m)
1	Oltiariq tumani	0,90	1 170,0
2	Bog‘dod tumani	0,90	1 170,0
3	Buvayda tumani	0,90	1 170,0
4	Beshariq tumani	0,90	1 170,0
5	Quva tumani	0,90	1 170,0
6	Uchko‘prik tumani	0,90	1 170,0
7	Rishton tumani	0,90	1 170,0
8	So‘x tumani	0,75	975,0
9	Toshloq tumani	0,90	1 170,0
10	O‘zbekiston tumani	0,90	1 170,0
11	Farg‘ona tumani	0,90	1 170,0
12	Dang‘ara tumani	0,90	1 170,0
13	Furqat tumani	0,80	1 040,0
14	Yozyovon tumani	0,80	1 040,0
15	Qo‘shtepa tumani	0,85	1 105,0

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
11-ilova

Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining eng kam va eng yuqori qat’iy belgilangan stavkalari

so‘mda

№	Xududlar nomi	Oziq-ovqat va nooziq ovqat chakana savdosi	Dehqon bozorlarida q/h mahsulotlari chakana savdosi	Gazeta, jurnal va kitob chakana savdosi	Maishiy xizmatlar va boshqa faoliyat turlari
1	Farg‘ona shahar	800 000	200 000	200 000	200 000
2	Qo‘qon shahar	435 000	145 000	145 000	145 000
3	Quvasoy shahar	400 000	134 000	135 000	135 000
4	Margilon shahar	435 000	145 000	145 000	145 000
5	Oltiariq tumani	290 000	72 000	70 000	72 000
6	Bog‘dod tumani	290 000	70 000	70 000	70 000
7	Buvayda tumani	290 000	72 000	70 000	72 000
8	Beshariq tumani	285 000	70 000	70 000	70 000
9	Quva tumani	285 000	72 000	70 000	72 000
10	Uchko‘prik tumani	290 000	68 000	70 000	72 000
11	Rishton tumani	290 000	70 000	70 000	70 000
12	So‘x tumani	66 250	16 250	16 250	16 250
13	Toshloq tumani	290 000	70 000	70 000	72 000
14	O‘zbekiston tumani	290 000	70 000	70 000	72 000
15	Farg‘ona tumani	290 000	72 000	70 000	70 000
16	Dang‘ara tumani	290 000	70 000	70 000	72 000
17	Furqat tumani	265 000	65 000	65 000	65 000
18	Yozyovon tumani	66 250	16 250	16 250	16 250
19	Qo‘shtepa tumani	290 000	70 000	70 000	70 000

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-031-11-0-K/24 -son qaroriga
12-ilova

Ko‘chmas mulk ob’ektlari ijara qiymatining 1 kvadrat metri uchun o‘rnatilayotgan minimal miqdorlar

so‘mda

№	Hudud nomi	Turar joylar		Noturar joylar	
		Koeffis ient	1 m.kv turar joylarning ijara narxi	Koeffis ient	1 m.kv noturar joylarning ijara narxi
1	Farg‘ona shahar	1.15	15 525	1.15	30 475
2	Qo‘qon shahar	1.10	6 050	1.10	12 100
3	Quvasoy shahar	1.00	5 500	1.00	11 000
4	Margilon shahar	1.05	5 775	1.05	11 550
5	Oltiariq tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
6	Bog‘dod tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
7	Buvayda tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
8	Beshariq tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
9	Quva tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
10	Uchko‘prik tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
11	Rishton tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
12	So‘x tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
13	Toshloq tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
14	O‘zbekiston tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
15	Farg‘ona tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
16	Dang‘ara tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
17	Furqat tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
18	Yozyovon tumani	1.00	5 500	1.00	11 000
19	Qo‘shtepa tumani	1.00	5 500	1.00	11 000